

3-SINFLARDA GAP BO`LAKLARINING TUZILISHI

Latipova Muhabbat

Toshkent viloyati Bekobod tumani 3-umumiy o`rta ta`lim maktabi Boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gap bo`lagi haqida umumiy ma`lumot va uning qanday shakllanishi gap bo`lagining avvalgi va hozirgi kundagi tuzilishi haqida so`z boradi.

Аннотация: В данной статье изложены общие сведения о придаточном предложении и о том, как оно образуется.

Annotation: This article provides general information about the clause and how it is formed, about the previous and present structure of the clause.

Kalit so`zlar: Gap bo`lagi, bosh bo`lak, ikkinchi darajali bo`lak, grammatik asos, ega, kesim, to`ldiruvchi, aniqlovchi, hol, sodda ega, murakkab ega, predikativlik tushunchasi, predikativ va subyekt, kesimning ifoda asoslari, ot-kesim, fe`l-kesim, tarkibli kesim, sodda kesim, bog`lama, murakkab kesim. moslashuv aloqasi, shaxsda moslik, sonda moslik, ot-kesimning moslashuvi, fe`l-kesimning moslashuvi, Gap bo`lagi, bosh bo`lak, ikkinchi darajali bo`lak, to`ldiruvchi, vositasiz to`ldiruvchi, vositali to`ldiruvchi.

Ключевые слова: Часть предложения, первая часть, вторая часть. градуированная часть, грамматическая основа, притяжательный падеж, причастие, дополнение, определитель, падеж, простой обладатель, сложный обладатель, понятие предикативности, предикатив и подлежащее, причастие основы выражения, именное словосочетание, глагольное словосочетание, содержательное словосочетание, простое словосочетание, союз, сложный раздел. отношение совместимости, совместимость в личности, совместимость в числе, склонение существительного спряжение, спряжение глагола, предложение, главное предложение, второе градуированная деталь, наполнитель, наполнитель без средств, наполнитель со средствами.

Key words: Part of the sentence, first part, second part graded part, grammatical base, possessive, participle, complement, determiner, case, simple possessor, complex possessor,



concept of predicativeness, predicative and subject, participle expression bases, noun phrase, verb phrase, content phrase, simple phrase, conjunction, complex section. compatibility relation, compatibility in person, compatibility in number, noun-declension conjugation, conjugation of the verb, clause, main clause, second graded part, filler, filler without means, filler with means.

Gapda biror soʻroqqa javob boʻlgan vaoʻzaro tobe bogʻlangan soʻz yoki soʻz birikmasi gap boʻlagi deb ataladi. Gap boʻlaklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. Soʻzlarga soʻroq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qoʻshimchalar olishi tom maʼnoda gap boʻlaklarining turlarini belgilashda asos boʻla olmaydi. Gap boʻlaklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, toʻldiruvchi toʻldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi boʻlak boʻlmas ekan, u yoki bu gap boʻlagi haqida gapirish mumkin emas.

Gap boʻlaklarining gap tarkibidagi mavqei bir xil emas. Baʼzi gap boʻlaklari gap qurilishida markaziy oʻrinni egallaydi, bunday boʻlaklarsiz fikr anglashilmaydi. Ayrim boʻlaklar esa gap qurilishida asosiy rol oʻynamaydi, ularning ishtirokisiz ham bosh boʻlaklar orqali fikr anglashilaveradi. Shunga koʻra gap boʻlaklari ikki turga ajratiladi:

- 1) bosh boʻlaklar;
- 2) ikkinchi darajali boʻlaklar.


Bosh boʻlaklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi. Fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi.

Ikkinchi darajali boʻlaklar gapning grammatik asosini tashkil qilmasdan, uni hajm jihatdan kengaytiradi yoki soʻz birikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ikkinchi darajali boʻlaklar bosh boʻlaklar bilan yoki oʻzaro tobe aloqada boʻlib, ularni izohlash, aniqlash, toʻldirish uchun xizmat qiladi.

Bosh boʻlaklar ega va kesimdan iborat. Ikkinchi darajali boʻlaklar aniqlovchi, toʻldiruvchi va holdir.

oʻzbek tilida gap boʻlaklarining joylashish tartibi, asosan, erkin boʻlsa-da, ular gapda maʼlum grammatik qoidalar asosida oʻrinlashadi. Odatda, gapda ega va unga bogʻlangan boʻlaklar oldin, kesim va unga bogʻlangan boʻlaklar keyin joylashadi, baʼzan aksinchasi ham boʻladi: Bu yoʻllar menga tanish – Menga tanish bu yoʻllar. Ega koʻproq gap boshida, – kesimning asosan, gap oxirida, – hol kesimdan oldin, – toʻldiruvchi kesimdan oldin, –





aniqlovchi egadan oldin keladi.—Bu odatdagi me'yoriy tartibdir. Gap bo'laklarining tagiga qanday chiziladi:

Ega: _____

Kesim: =====

To'ldiruvchi: - - - - -

Aniqlovchi: ~~~~~

Hol:

Nutqda doim ham gap bo'laklarining odatdagi tartibi saqlanavermaydi, gapdan ko'zda tutilgan umumiy fikrga qo'shimcha ma'no, uslubiy yuk berish uchun tartib o'zgartirilishi mumkin. Gap bo'laklari tartibining o'zgartirilishi inversiya deyiladi. Bunday holat gap urg'usi olgan gap bo'laklarida kuzatiladi: Kecha samolyotda Farg'onadan akam keldi. Ko'rinadi, e'tiborni qaratgan bo'lak kesimdan oldinda keltiriladi. Gap bo'laklari odatdagi va o'zgargan tartibining nutqda o'z qo'llanilish o'rni bor. Odatdagi tartib ilmiy asarlar uslubi uchun mos bo'lsa, o'zgargan tartib og'zaki nutq uchun va badiiy (ayniqsa, she'riy) nutq uslubi uchun xos.

Ega-----kesim

Aniqlovchi ega to'ldiruvchi hol kesim

O'zgargan tartib

Kesim -ega

Kesim- to'ldiruvchi

Ega- kesim- hol

Gap bo'laklari gap tarkibida ikki xil tartibda joylashadi:

ODATDAGI TARTIB

1) ega o'zining aniqlovchisi bilan kesimdan oldin keladi: Bilimdon talabalar topshiriqni puxta bajaradilar.


2) to'ldiruvchi o'zining aniqlovchisi bilan kesimdan oldin keladi: Kechagi vazifani bajarish kerak.

3) 3) payt holi va vaziyat holi kesimdan oldin keladi: Kechagi voqeani kula-kula so'zlab berdi.

O'ZGARGAN TARTIB

➤ ega kesimdan keyin keladi: Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar.

➤ to'ldiruvchi kesimdan keyin keladi: Kezdim gulzor yang'lig' bog'larni.





➤ payt holi, o‘rin holi va vaziyat holi kesimdan keyin keladi: Bir doctor kelibdi Toshkentdan. Gapirdi zavqlanib.


➤ qaratqich qaralmishdan keyin: o‘zbekiston – Vatanim manim.

Gap bo‘laklari gapning uzviy qism sifatida maydonga keluvchi sintaktik kategoriyalardir. So‘zlar gapda semantik grammatik jihatdan mustaqil vazifa ifodalabmuayyan so‘roqqa javob bo‘lib, kelganda gap bo‘lagi sanaladi. So‘zlarning biror bo‘lak vazifasi kela olishi yoki kela olmasligini gapning qurilishining sintaktik qoidalari belgilaydi. Gap bo‘lagi gapning boshqa bo‘laklari bilan o‘zaro grammatik bog‘langan, uzviy bog‘langan munosabatga kirishgan organik qismidir. Gap bo‘laklari mustaqil so‘zlar yoki so‘z

birikmalari bilan ifodalanadi. Har qaysi turkumdagi so‘zlargapda ma‘um bir sintaktik vazifa da qo‘llanadi. Fe‘lning ko‘proq kesim, sifatning aniqlovchi, ravishning hol, otning ega, to‘ldiruvchi vazifasida kelishi ana shu holat bilan izohlanadi. Biroq undan so‘z turkumlari bir xil hodisa ekan degan xulosa kelib chiqmaydi.

So‘z va so‘z birikmalarining mohiyati ularning gap tarkibida bajarganini vazifa belgilaydi.


Gap bo‘laklarini o‘rganish leksik semantik strukturasi o‘rganish bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki gapning bo‘laklarga ajratish ularning ifoda materiallari va ma‘nolarini o‘rganishni taqazo etadi. Gapning har bir bo‘lagi gap orqali qilinayotgan hukmning butunligini ta‘minlashda alohida o‘rin tutadi. Gap belgi belgilashda so‘z yoki birikmaning quyidagi belgilari asosiy (tamoyil) bo‘lib xizmat qiladi. Gap bo‘laklarining leksik-semantik xususiyati. Bunda gap bo‘lagi vazifasida kelgan so‘zning anglatgan ma‘nosi e‘tiborga olinadi, ya‘ni bunda so‘zning gap tarkibida anglatgan ma‘no va talab qilayotgan so‘rog‘i asos bo‘ladi. Gap bo‘laklarining semantik aloqaga kirish usullari. Har bir gap bo‘lagi gapda sintaktik aloqaning u yoki bu turi yordamida boshqa bo‘laklar bilan aloqaga kirishadi. Ega fe‘l kesim bilan shaxs-sonda moslashadi. To‘ldiruvchi o‘z komponentiga (to‘ldirishiga) boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi. Sifat aniqlovchi doim bitirish yo‘li bilan aloqaga kirishadi. Gap bo‘laklarining sintaktik aloqa usuli yordamida belgilashda ana shu jihatlarga e‘tibor qaratiladi. Gap bo‘laklarini aloqaga kirituvchi vositalar. Ma‘lumki, har bir gap bo‘lagi ma‘lum bir leksik-grammatik vosita yordamida boshqa bo‘laklar bilan





doimo tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari formalari yoki ko'makchilar yordamida aloqaga kirishadi. Bunday vositalar boshqa bo'laklarga ham hosdir. Bunda gap bo'lagini belgilashda ana shunga e'tibor qilamiz. Gap bo'laklarining bir-biriga nisbati (munosabat). Bunda biror bir bo'lakning asosan qaysi bo'laklarga bog'lanish kesimiga oladi. Masalan, sifat ko'proq egaga to'ldiruvchiga, hol asosan fe'l kesimiga bog'lanadi. Mazkur tamoyil gap bo'laklarini belgilashda bo'laklarning ana shu jihatlari e'tiborga olinadi. Bo'laklar gapda vazifa jihatdan bir hil emas. Ba'zi bo'laklar gapning umumiy mazmuniga aniqlik kiritish, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradi. Bularning qo'llanmasligi gap mazmunini yoki tuzilishini keskin o'zgartirib yubormaydi. Ba'zi bo'laklar esa aksincha gapda ishtirok etishii albatta zarur, chunki bularsiz gapning o'zi hosil bo'lmaydi. Mana shu tomonlarga ko'ra gap bo'laklari ikki turga ajraydi: bosh bo'lak va ikkinchi darajali bo'lak. Bosh bo'lak gapning grammatik asosini tashkil etadi. Ular gapning sintaktik markazini ifoda etib zaruriy bo'laklar sanaladi. Bir gap orqali ifoda etayotgan hukmi bosh bo'laklar ega va kesim orqali reallashadi. Gap uchun zarur bo'lgan predikativlik tushunchasi bosh bo'laklar orqali ifoda etiladi. Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarga bog'lanib ularni mazmunan to'ldirib belgi va holat jihatdan aniqlab keladi Ana shu xususiyatlardan kelib chiqib, ikkinchi darajali bo'laklar aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi turlarga ajraydi. Ular gapda mustaqil qo'llana olmaydi. Ular bosh bo'laklarga bog'langandagina nutqda ishtirok etadi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning semantik grammatik munosabati shuni ko'rsatadiki, ikkinchi darajali bo'lgan tobe, bosh bo'lak hokim bo'ladi.


Ega ikki tarkibli gapning bosh bo'laklaridan biridir: u hokim tarkibining grammatik markazi, shu tarkiblardagi bo'laklarga, shuningdek, tobe tarkibidagi bosh bo'lakka-kesimga ham hokimdir. Ega absalut hokim holatidagi bo'lakdir. U gapdagi fikr, hukm o'ziga qaratilgan-predmetning nutq predmetning nomidir. Ega harakatni bajaruvchi yo qabul qiluvchi shaxsdir, yoki kesim ifodlangan holat yo belgi qarashli predmet. Ega ba'zan turni anglatadi. Umumiy qilib aytganda, gapda hukm o'ziga qaratilgan, fikr o'zi haqida borayotgan, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bosh kelishik formasidagi hokim bo'lak-ega





deyiladi. Kesim ifodalagan belgi egaga tegishli bo'ladi. Demak, ega fikr sub'ektni, nutq predmetini bildiradi. Egalar kim, nima, qayer so'roqlariga javob bo'ladi. Ba'zan ega gapda qo'llanmasligi ham mumkin. Eganing qo'llanmasligi gapning to'liqsizligi, uning biror bo'lagining tushib qolganligini, etishmasligini ko'rsatmaydi, aksincha, eganing qo'llanmasligi har-xil stilistik, poetik talablar natijasida sodir bo'ladi va gapning me'yoriy shakllanganligini ko'rsatadi. Ega bosh kelishik formasidagi ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Ba'zan ega chiqish kelishigi formasini ham olishi mumkin. Masalan: Tajriba uchaskamizda turli o'simliklardan bor. Otlashgan so'z bilan ifodalangan ega ko'pincha son va egalikaffikslarini oladi, bular uning otlashish holatini yanada mustahkamlaydi, lekin substantivatsiya –otlashish uchun bu affikslarning bo'lishi shart emas. Masalan: Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar. Sifatdosh, harakat nomi bilan ifodalangan egalarning o'ziga hos xususiyatlari bor. Bular aslida fe'l bo'lganligidan, o'ziga maxsus to'ldiruvchi va hol olib kengayishi mumkin. Masalan: Ishlamay egan og'rimiyay o'lar. Bunday kengayish gap-yoyiq bo'laklarini yuzaga keltiradi. Ellik kishi gazetaga yozildi. Hasharga to'qson kishi qatnashdi kabi gaplardagi «son+ot» tipidagi birikmalarda o'sha ot o'zidan oldingi son, miqdor bildiruvchi so'z bilan birgalikda ega sanaladi. Yana chog'ishtirish: O'nta bola suv bo'yida o'tirishibdi. Ega vazifasidagi ot qo'llanmay, bu vazifagni uning aniqlovchisi o'z ustiga olganda, otlashgan ega tug'ilishini ko'rib o'tdik. Ba'zan bu holatning ayrimroq ko'rinishini ham uchratamiz: «Yashirinuvchi» eganing aniqlovchisi sintaktik konstruktsiyadan iborat bo'lganda, butun bir konstruktsiya ega vazifasida qo'llanadi. Ega tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi. Sodda egalar sintaktik formadagi birgina so'zlardan iborat bo'ladi. Masalan fusunkor bahor, dillarga quvonch baxsh etib keldi. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning tobelanish munosabatidan tuzilib, bir butun holda qo'llanadigan, bir murakkab tushuncha anglatadigan egalar murakkab hisoblanadi. Egani tahlil qilish tartibi: Bo'lakning nomi; ifodalanishi; Grammatik shakli; so'rog'i; qaysi bo'lakka bog'langanligi: a) sintaktik aloqasi, b) semantik aloqasi; tuzilishi.

Kesim bosh bo'laklarning ikkinchisi bo'lib, egadan anglashilgan predmetning belgisini ifoda qiluvchi bo'lakdir. Kesim belgi anglatish jihatidan aniqlovchiga o'xshaydi. Lekin aniqlovchi belgini predmet bilan bog'lanib,






atributiv yo‘l bilan ifoda qilsa, kesim belgini egadan anglashilgan predmetda mavjud yoki mavjud emasligi nuqtai nazaridan ifoda etadi. Kesim gap tuzishda asosiy bo‘lakhisoblanadi. Gapning asosiy belgisi bo‘lmish predikativlik, asosan, kesim orqali ifodalandi. Saida o‘zida yoq xursand edi.

Eganing belgisini, harakatini, holatini yoki boshqa biror belgisini hukm yo‘li bilan ifodalaydigan bo‘lak kesim deyiladi. Kesim predmet aktiv (ish-harakat) yoki passiv (sifatholat) belgilarini ifoda etadi. Eganing aktiv belgisi uning o‘z faoliyati natijasida hosil qilinadi. Qo‘shnilar qizni maqtashdi. Passiv belgi esa uning doimiy belgisi hisoblanadi. Istiqboli miz naqadar porloq va quvonchli! Demak, kesim bir tomondan eganing belgisini, ifodalaydigan, ikkinchi tomondan qaysidir jihatdan ma‘nosi to‘ldirilgan, aniqlanadigan bo‘lak hisoblanadi. Kesim nima qildi?, nima qilmoqda?, qandaydir?, qanchadir?, kimdir?, nimadir? kabi so‘roqlargajavob bo‘ladi. Kesim uchun tipik so‘z turkumi fe‘ldir. Tuslangan fe‘llar gapda doimo kesim vazifasida keladi. Boshqa so‘z turkumlari ham gapda kesim vazifasida kelishi mumkin. Lekin bu vaqtda bog‘lama, predikativlik affiksleri, tartib va intonatsiyaning roli katta bo‘ladi. Kesim ifoda materialiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: 1.Ot-kesim. 2.Fe‘l-kesim.

Fe‘ldan boshqa turkumlarga oid so‘zlar bilan ifodalangan kesim ot-kesim deyiladi. Ot-kesimlar egalik sifati, miqdori, jinsi, xususiyati kabi passiv belgilarni ifodalaydi. Ular kimdir?nimadir? qandaydir? qanchadir? nechtdir? kabi so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Xulosa.

Xulosa qilib, gapda biror so‘roqqa javob bo‘lgan vao‘zaro tobe bog‘langan so‘z yoki so‘z birikmasi gap bo‘lagi deb ataladi. Gap bo‘laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. So‘zlarga so‘roq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qo‘shimchalar olishi tom ma'noda gap bo‘laklarining turlarini belgilashda asos bo‘la olmaydi. Gap bo‘laklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, to‘ldiruvchi to‘ldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi bo‘lak bo‘lmas ekan, u yoki bu gap bo‘lagi haqida gapirish mumkin emas. Gap bo‘laklari mustaqil so‘zlar yoki so‘z birikmalari bilan ifodalanadi. Har qaysi turkumdagi so‘zlargapda ma‘um bir sintaktik vazifa





da qo`llanadi. Fe'ning ko'proq kesim, sifatning aniqlovchi, ravishning hol, otning ega, to'ldiruvchi vazifasida kelishi ana shu holat bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Hamrayev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.
2. R. Ikromova, D. Muhamedova, M. Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. (o'quv qo'llanma). TDPU, Toshkent, 2009-yil.
3. Abdukadirova M.M. Gap bo'laklarining tartibi: odatiy tartib va o'zgargan tartib. Ona tili.
4. <https://fayllar.org/mavzu--gap-bolaklari-haqida-umumiy-malumot-bosh-bolaklar-ega-v.html>. Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot. Bosh bo'laklar.

